XALQ DEPUTATLARI PAXTAKOR TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 29-dekabr VII-19-201-3-52-K/25 Paxtakor tumani

2026-yil uchun Paxtakor tumanining mahalliy byudjeti to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27 va 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-23-350-3-0-K/25-son qaroriga muvofiq hamda Jizzax viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 29-dekabrdagi 02-01-01-176-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Paxtakor tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-23-350-3-0-K/25-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Paxtakor tumani mahalliy byudjetining 2026-yilgi daromadlari **87 614 663,0 ming so‘m** va xarajatlari esa **87 614 663,0 ming so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek, Paxtakor tumani mahalliy byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **398 000,0 ming so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Paxtakor tumani mahalliy byudjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda 2026-yilda umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy byudjetiga ajratmalar me’yori 2-ilovaga muvofiq, tuman mahalliy byudjetidan 2026-yilda hududiy byudjet mablag‘larini

taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq, tuman mahalliy byudjetining 2026-yil daromadlari va xarajatlarning chegaraviy hajmi 4-ilovaga muvofiq, shuningdek, tuman byudjeti yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman mahalliy byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **1 098 000,0 ming so‘m** miqdorida belgilansin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i Sh.Shodmonov, tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari A.Uzoqov, tuman soliq inspeksiyasi (B.Nurmurodov) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Ushbu qaror 2026-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

9. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Paxtakor tumani Kengashining “Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish” masalalari doimiy komissiyasi (Z.Jumaboyev) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i Sh.Shodmonov zimmalariga yuklatilsin.

Sessiya raisi **MAMANOVA KAROMAT XOLMANOVNA**

Xalq deputatlari Paxtakor tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-19-201-3-52-K/25 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Paxtakor tumani mahalliy budjeti daromadlarining prognoz ko‘rsatkichlari miqdori

T/r	Daromad turlari	JAMI
	JAMI	**87 614 663**
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	**1 730 480**
2	Foyda solig‘i	**471 000**
3	Aylanmadan olinadigan soliq	**5 143 000**
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	**41 420 300**
5	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	**624 445**
	Aksiz solig‘i jami	**2 736 000**
	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	**0**
	pivo	**0**
6	*benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i*	**2 736 000**
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	**3 994 000**
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	**5 230 000**
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	**13 698 835**
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	**6 020 803**
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qaridan foydalanganlik uchun soliq	**0**
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	**4 413 000**
	shundan: Qishloq xo‘jaligi korxonalari bo‘yicha suv solig‘i	**6 800 000**
	Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	**2 720 000**
13	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	**0**
14	Davlat boji	**1 226 250**
15	Yig‘imlar	**149 550**
16	Jarimalar	**739 000**
17	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	**18 000**

Xalq deputatlari Paxtakor tumani Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-19-201-3-52-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun ajratma me’yorlari
PROGNOZI

foiz hisobida

№	Hudud nomi	Qo‘shilgan qiymat solig‘i				Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i				Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan				Foyda solig‘i				Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)				Pivo			
		Tuman byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga	
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
1	Paxtakor tumani	0%	40 %	100%	60%	0%	90%	100%	10%	100%	100%	0%	0%	0%	20%	100%	80%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%

Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i				Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq				Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i				Qurilish materiallari bo‘yicha yer qaridan foydalanganlik uchun soliq				Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq				Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar			
Tuman byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga	
MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%

Aylanmadan soliq		Davlat boji		Jarima		Yig‘imlar	
Tuman byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga
100%	0%	25%	75%	10%	90%	15%	85%

Xalq deputatlari Paxtakor tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-19-201-3-52-K/25 -son qaroriga
3-ilova

2026-yil uchun Paxtakor tumani mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘m

T/r	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
	Xarajatlar miqdori, jami	**87 614 663,0**
1	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	31 049 939,0
	shundan:	0,0
	"Mening maktabim"	1 174 200,0
2	Madaniyat bo‘limi	5 235 051,0
3	Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi	2 160 215,0
4	Sport bo‘limi	5 455 114,0
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1 458 584,0
6	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	3 275 770,0
7	Irrigatsiya bo‘limi	748 837,0
8	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	2 492 645,0
9	Ijtimoiy himoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	0,0
10	Hokimiyat	19 663 879,0
	shundan:	0,0
	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	0,0
	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	0,0
	Madaniyat bo‘limi	0,0
	Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi	0,0
	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi	0,0
	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi	0,0
	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	0,0
	Oila va xotin-qizlar bo‘limi	0,0
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*9 888 000,0*
	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*652 000,0*
	Zaxira jamg‘armasi	*1 058 173,0*
11	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	1 149 656,0
	shundan:	0,0
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*0,0*
	Axborot-kutubxona markazlari	*1 149 656,0*

12	Obodonlashtirish boshqarmasi	14 924 973,0
13	Boshqa tashkilotlar	0,0

Xalq deputatlari Paxtakor tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-19-201-3-52-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Paxtakor tuman mahalliy budjetining 2026-yil daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Hudud nomi	Mahalliy budjetlarning jami daromadlari	Shundan,		Mahalliy budjet xarajatlari
		Mahalliy budjet daromadlari	Tartibga soluvchi transfert miqdori	
Paxtakor tumani	87 614 663,0	87 614 663,0	0,0	87 614 663,0

Xalq deputatlari Paxtakor tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-19-201-3-52-K/25 -son qaroriga
5-ilova

Paxtakor tumani mahalliy budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/p	Hudud nomi	Miqdor
1	Paxtakor tumani	**398 000,0**